



SHAXS KAMOLOTI VA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI HAQIDA QOMUSIY OLIMLARNING FIKRLARI.

Xamidova Diyora Rustam qizi.

SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs kamolotida qomusiy olimlarning fikrlari va ularning asarlarida ta'lim- tarbiya, insoniy xislatlar haqidagi fikrlari izohlangan. Bundan tashqari davlat va jamiyat rivojida ilm- fanning yetakchi o'rinda turishi keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Shaxs, ta'lim, tarbiya, faoliyat, ijodkorlik, komillik, ilm-fan, rivojlanish.*

Аннотация. *В этой статье объясняются мысли ученых, занимающихся личностным созреванием, и их взгляды на воспитание, человеческие качества в своих работах. Кроме того, было отмечено лидирующее положение науки в развитии государства и общества.*

Ключевые слова. *Личность, образование, воспитание, деятельность, творчество, совершенство, наука, развитие.*

Annotation. *In this article, the opinions of encyclopedic scientists on personality development and their opinions on education and human qualities are explained in their works. In addition, the leading position of science in the development of the state and society was mentioned.*

Key words. *Person, education, upbringing, activity, creativity, perfection, science, development.*

Asrlar davomida bolalarda ijodkorlikni shakllantirish usulari haqida olimlar o'z fikr va mulohazalarini bildirib kelishganlar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi.

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini izchil, atroflicha, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti to'g'risida qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Ulardan qolgan nodir durdonalarini o'rganar ekanmiz, ular o'z asarlarida aynan shaxs kamolotida ta'lim tarbiya yetakchi o'rinda turishini ko'zatishimiz mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tamonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat deb aytadi. Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida



ta'lim – tarbiyaning muhurligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim – tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixsos – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z ishlarida ta'lim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rnini va xususiyatini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy mavjudotni bilishda ilm–fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf– odatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi deb ta'kidlanadi. Bundan tashqari Forobiy o'z asarlarida insonda bo'lishi joiz bo'lishi kerak bo'lgan hislatlar haqida ham takidlab o'tgan. Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi. Forobiy ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum xunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarini to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir". Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "sezgi" orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va



insonshunoslik zamirida yaratilganligini takidlab o'tgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi. Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga o'qitishni tabiatga uyg'unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Ma'lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, jang va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi undaga nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. Ma'lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Yusuf Xos Hojibning asarlarida esa bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qudadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhtaful ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlari ifodalangan. Buyuk mutaffakkir, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy o'z asarlarida inson kamolotida ta'lim tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida o'z qarashlarini

Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida yetuk barkamol insonning axloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolat qaror topish uchun muhim ahamiyatga ega ekani takidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr mulohazalari alohida o'rin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmis iroda, qa'tiyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiyning yoshlar tarbiyasiga, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilaro munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon



etilganligini ta'kidlash mumkin. Har tomonlama yetuk shakllangan, komil inson g'oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Bundan tashqari ta'lim-tarbiya bilan birgalikda o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda turli xil metod va usullardan foydalanish mumkinligini ijohlab o'tishgan. Jumladan, Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- fan olimpiadalari;
- turli mavzulardagi tanlovlar;
- maktab ko'rgazmalari;
- festivallar;
- musobaqalar.

Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy – tarixiy psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi .

ADABIYOTLAR:

1. Levin, V.A. Ijodkorlikni tarbiyalash. - Tomsk: Peleng, 1992 yil
2. 1. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar|| Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
3. 2.F.Zakirova va boshq.Elektron o'quv-metodik majmualar vat a'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'ltanma, T.: OO'MTV, 2010. – 57b.
4. 3. www.ziyonet.uz
5. "Maktab o'quvchilari faoliyatini rivojlantirish usullarining oqilona kombinatsiyasi." Ed N.P. Palyanova, Izlash, 2003 yil
6. O'qishda o'quvchilarning reproduktiv va ijodiy faoliyati. Ed I.T. Ogorodnikova M., 2002 yil